

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

---

**MELIQULOV G‘AYRAT ABDUG‘AFFOROVICH**

**TARIXIY YODGORLIKlar ASOSIDA HUDUDLARNING  
TURIZM IMKONiyATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI  
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.  
Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash va tiklash**

**Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on architecure**

**Meliqulov G‘ayrat Abdug‘afforovich**

Tarixiy yodgorliklar asosida hududlarning turizm imkoniyatlarini oshirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	3
--	---

**Меликулов Гайрат Абдугаффорович**

Пути повышения туристического потенциала регионов на основе исторических памятников (на примере Кашкадарьинской области) .....	23
--	----

**Meliqulov G‘ayrat Abdug‘afforovich**

Ways to increase the tourism potential of the regions on the basis of historical monuments (on the example of the Kashkadarya region).....	45
--	----

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....	50
-------------------------------	----

**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

---

**MELIQULOV G‘AYRAT ABDUG‘AFFOROVICH**

**TARIXIY YODGORLIKlar ASOSIDA HUDUDLARNING  
TURIZM IMKONiyATLARINI OSHIRISH YO‘LLARI  
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

**18.00.01 – Arxitektura nazariyasi va tarixi.  
Arxitektura yodgorliklarini ta’mirlash va tiklash**

**Arxitektura bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.1.PhD/A82 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) hamda «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamatmusaev Toxir Shaydulovich**  
arxitektura fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ziyaev Abdumannop Abduraximovich**  
arxitektura fanlari doktori, professor

**Hasanov Akram Mo‘minovich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Kamoliddin Bexzod nomidagi Milliy rassomlik va  
dizayn instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “\_\_\_” soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko‘chasi, 7A-uy. Arxitektura fakulteti majlislar zali. Tel.: +99871 235-43-30, faks: +99871 234-15-11, web: [www.taqi.uz](http://www.taqi.uz); e-mail: [devon@taqi.uz](mailto:devon@taqi.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangi shahar ko‘chasi 9-uy. Tel.: +99855 508-02-89).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_»\_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**B.A. Asqarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**Sh.S. Reyimbaev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, arx.f.n., dotsent

**A.A. Saidov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arx.f.n., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbliji va zaruriyati.** Hozirda dunyoda tarixiy shaharlarni rekonstruksiya qilish va arxitektura yodgorliklarni ta'mirlash orqali hududlarning turistik salohiyatini takomillashtirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda tarixiy shaharlarning strukturaviy tuzilishini saqlab qolish, muhofaza zonalarini yaratish, samarador turistik marshrutlarni taklif etish hamda me'moriy yodgorliklarni ta'mirlash ishlarini to'g'ri amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda arxitektura yodgorliklarini ta'mirlash, ulardan samarali foydalangan holda hududlarning turistik imkoniyatlarini takomillashtirish, tarixiy shaharlarda yangi turistik yo'nalishlarni yaratish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada qadimiy shaharlar va tarixiy mahallalarni regenerasiya qilish, yodgorliklarni ta'mirlash, qisman yoki to'liq buzilib ketgan yodgorliklarning qayta tiklash loyihasini amalga oshirish, shaharlarning tarixiy ko'rinishini saqlab qolish, mavjud turistik marshrutlarning yutuq va kamchiliklarini o'rgangan holda samarador turistik marshrut yo'nalishlarini taklif etish kabilar dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Respublikamizda oxirgi yillarda tarixiy hududlarning turizm infrastrukturasini rivojlantirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilib, tarixiy shahar hududlarni zamonaviy ob'ektlardan holi qilish, me'moriy ob'ektlarning turistik marshrutlardagi o'rnini aniq belgilash yuzasidan qator islohotlar olib borilmoqda. "...Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Hukumat oldidagi eng muhim vazifalardan biri – joriy yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga etkazishdan iborat".<sup>1</sup> Bu borada mamlakatimizdagi tarixiy shaharlar va me'moriy ob'ektlarni ilmiy asosda tadqiq etish va ularni ta'mirlash va qayta qurish takliflarini ishlab chiqish, turizm salohiyatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek samarador turistik marshrut yo'nalishlarini ishlab chiqish dolzarb masalada hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 maydagi PF-5030-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 16 yanvardagi PF-5181-son "Moddiy, madaniy va arxeologik meros ob'ektlaridan foydalanishni va muhofazasini takomillashtirish to'g'risida", 2021 yil 9 fevraldagi PF-6165-son «O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyyarat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari, 2014 yil 21 iyuldagagi PQ-200-son "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 1 martdagi 112-son "Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va shu sohaga tegishli boshqa

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга қилган Мурожаатномаси

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi.** Dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovasion g‘oyalari tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Qashqadaryo viloyati shaharsozligi tarixi va madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi, moddiy-madaniy meroslari va ularning badiiy qiymatini aniqlashga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot ishlarini L.Mankovskaya,<sup>2</sup> V.V.Bartold,<sup>3</sup> Yu.A.Zadneprovskiy,<sup>4</sup> M.A.Yusupova,<sup>5</sup> G.Pugachenkova,<sup>6</sup> M.Masson,<sup>7</sup> H.Hasanov,<sup>8</sup> A.Juvonmardiev,<sup>9</sup> H.Vamberi, Ya.G.G‘ulomov, P.Ravshanov,<sup>10</sup> P.Sh.Zohidov, A.Hasanov,<sup>11</sup> M.X.Isamiddinov, X.T.Sultanov, N.V.Gilmanova,<sup>12</sup> Z.M.Akramov, A.Aliev, T.Ro‘zibaev,<sup>13</sup> I.Azimov<sup>14</sup> va boshqalar tomonidan olib borilgan. O‘tgan davr mobaynida viloyat tarixiy shaharlari va madaniy meros ob’ektlarining u yoki bu jihatlariga qaratilgan salmoqli tadqiqotlar natijalari maqolalar, monografiyalar shaklida nashr ettirilgan. Hamda dissertasiyalar yozilgan. Tarixiy shaharlarning evolyusiya jarayonini o‘rganishda zardo‘shtiyarning “Avesto”, Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard (Erning surati kitobi)”, Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abdurazzoq Samarqandiyining “Matlai Sa’dayn va Majmai Bahrayn”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Ibratning “Farg‘ona tarixi” va boshqa tarixiy asarlar muhim manbalar hisoblanadi.

Shuningdek, shaharlar tarixi va me’morchiligiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, jumladan, M.Q.Ahmedov<sup>15</sup>, M.A.Yusupova<sup>16</sup>, Sh.D.Asqarov<sup>17</sup>,

<sup>2</sup> Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари 1979 й.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Сочинения, 3-том. Стр. 211-212.

<sup>4</sup> Заднепровский Ю.А. Типология и динамика развития городских поселений древней Ферганы // Древний город Средней Азии. Краткие тезисы докладов к заседанию на конференции, посвященной полевым исследованиям в области археологии и этнографии в 1972 г. – Ленинград, 1973.

<sup>5</sup> Юсупова М.А. Половека трансформации архитектуры Узбекистана. На примере «новых городов» Ферганской долины, конца XIX – начало XX в. –Т.: 2005 й.

<sup>6</sup> Термез, Шахрисябз, Хива. Москва 1976 г., Архив манба: Маньковская Л.Ю. Мечеть Кўк Гумбаз. 1971 г

<sup>7</sup> Пугаченкова Г.А., Массон М.Е. Шахрисябз при Тимуре и Улугбеке // Труды САГУ. Новая серия, вып. 49. Гуманитарные науки, книга 6. 1951 г.

<sup>8</sup> Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. - Т.: 1965 й.

<sup>9</sup> Жувонмадиев А. Намийган –“азиз ва номдор кишилар шаҳри Жучкевич А.В. Топонимика Белоруссии. – Минск, 1968 г.

<sup>10</sup> Равшанов П. Қарши тарихи. 2006 й.; Равшанов П. Шахрисабз тарихи. 2011 й.

<sup>11</sup> Ҳасанов А. Қашқадарё шаҳарсозлиги ва меъморчилиги. 2019 й., Жанубий Ўзбекистонда шаҳарлар шаклланиши ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (V-XIV асрлар биринчи ярми мисолида). 2021 й. 79-б.

<sup>12</sup> Султанов Х.Т. Гильманова Н.В. Историко-архитектурное и художественное наследие Кашкадаръи. Монография. Т.: 2022 г.

<sup>13</sup> Рўзибаев Т, Ҳожимираев М. Наманганская область. Туркум китоб. “Ўзбекистон”. 1981 й., 17-б.

<sup>14</sup> Азимов И. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. Йўл кўрсаткич. - Т.: «Ўзбекистон», 1986.

<sup>15</sup> Ахмедов М.К. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи. Т.: “Ўзбекистон” 1995.

<sup>16</sup> Юсупова М.А. Эволюция зодчества Бухары XVI- начала XVII вв. // ОНУ, № 9-11. Фан. Тошкент, 1997. С. 97-109.

T.F.Qodirova, N.B.Baklanov, V.A.Lavrov, D.A.Nozilov<sup>18</sup>, Yu.Pisarchuk, X.Sh.Po'latov,<sup>19</sup> O.M.Salimov<sup>20</sup> K.D.Raximov<sup>21</sup> A.S.O'rolov<sup>22</sup> A.A.Ziyaev,<sup>23</sup> T.Shirinov, B.Matbabaev,<sup>24</sup> T.Sh.Mamatmusaev, B.M.Xusanbaev, L.A.Tulaganov, V.G.Razina, Z.E.Matniyozov,<sup>25</sup> Sh.Z.Nurmuxamedova<sup>26</sup> va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan. Me'moriy yodgorliklarni qurilish materiallarini va konstruktiv tuzilishini o'rganishga doir ilmiy tadqiqot ishlari (XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hozirgi vaqtgacha) E.M.Gendel, A.A.Asanov, V.L.Voronina, N.S.Grajdankina, K.S.Abdurashidov, A.A.To'laganov, N.A.Samigov, E.Q.Qosimov, K.I. Shtark, A.Toshtemirov va Z. Shodmonova kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Qashqadaryo viloyati shaharlari tarixi, me'moriy yodgorliklari tipologiyasining kompleks tarzda o'rganilmaganligi, turizm yo'nalishlarining samarador usullarini ishlab chiqish, tarixiy me'moriy yodgorliklarni saqlash, muhofaza qilish, ta'mirlash va foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida tarixiy yodgorliklar ma'lumotlar bazasining shakllantirilmaganligi ushbu mavzuni chuqurroq o'rganish lozimligini ko'rsatadi.

**Dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertasiya tadqiqoti Toshkent arxitektura-qurilish institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F.1-86 raqamli "O'zbekiston arxitekturasining mustaqillik mafkurasi asosida shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish va samarali rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish" (2011-2016 yy.) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qashqadaryo viloyati yodgorliklari arxitekturasini ochib berish hamda turizm infrastrukturasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Qashqadaryo viloyatining qadimgi davr shaharsozligining shakllanish bochqichlarini o'rganish;

arxitekturaviy obidalar bo'yicha mavjud manbalarni, arxiv materiallarini o'rganish va to'plangan materiallarni umumlashtirish;

---

<sup>17</sup> Аскаров Ш.Д. Генезис архитектуры Узбекистана. -Т.: 2014

<sup>18</sup> Нозилов Д.А. Марказий Осиё мөъморчилигига интеръер. Фан. Тошкент, 2005 й.

<sup>19</sup> Пўлатов Х.Ш., Назаров Ў.О. Архитектура назарияси масалалари: Тош ва ёгоч ордерларининг қиёсий график-аналитик таҳлили (эссе). "Fan va texnologiya". Тошкент, 2017; Захидов П., Пулатов Х. Мукарнас в архитектуре Узбекистана (Х-ХХ вв.). Учебное пособие. Ташкент, 2002.

<sup>20</sup> Салимов А.М. Сохранение и использование памятников архитектуры Узбекистана. Фан. Тошкент, 2009.

<sup>21</sup> Рахимов К.Д. Боғ-паркларни лойиҳалашнинг замонавий йўналишлари. Ўқув қўлланма, СамДАҚИ. Самарқанд, 2017.

<sup>22</sup> Ўролов А.С. Меъморий шаклларни уйғунлаштириш ва безаш. Дарслик, СамДАҚИ. Самарқанд, 2003.

<sup>23</sup> Зияев А.А. Ташкент. Часть I. Древность и средневековье. - Т.: 2009.

<sup>24</sup> Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Оборонительные сооружения древней Ферганы (кон. II тыс. до н.э. – нач. I тыс. н.э.). – Ташкент: «Shidasپ», 2011. – 176 с.

<sup>25</sup> Матниёзов З.Э. "Оролбўй минтақаси туристик маршрут объектлари архитектура мухитини ташкил этиш тамоилилари" мавзусидаги фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Т.: 2021й. 16-б.

<sup>26</sup> Нурмуҳамедова Ш.З. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода. Монография, Изд. «Fan va texnologiya». Тошкент, 2018.

arxitekturaviy yodgorliklarning funksiyasiga ko‘ra kompozisiyaviy tuzilishini tahlil qilish;

3D modellashtirish hamda zamonaviy AKT dasturlarini qo‘llagan holda arxitektura yodgorliklarini grafik tiklash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

tarixiy hududlarda turistik marshrutlarni shakllantirish tajribalarini o‘rganish;

Qashqadaryo viloyatining arxitektura yodgorliklardan foydalanib turistik marshrutlarni shakllantirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ob’ekti** sifatida Qarshi va Shahrисabz shaharlarida joylashgan arxitektura ob’ektlari va turistik marshrut yo‘nalishlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** o‘rganilayotgan shaharlardagi arxitektura obidalarining rejaviy va kompozision echimlari, samarali turizm infrastrukturasini shakllantirish yo‘llari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiy, arxiv materiallarni, me’moriy loyihalarni tahlil qilish, monitoring-kuzatuv, tajriba-sinov, intervyu kabi tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo vohasida joylashgan tarixiy manzilgoh-shaharlarning vujudga kelish va shakllanish bosqichlari aniqlanib, zamonaviy Qarshi shahrining qadimgi va antik davrlarda Yerqo‘rg‘on (mil.avv. V-IV aa.), Qal’ai Zahoki Moron (mil.avv. II a.), Shulluktepa (mil. III-IV aa.) kabi hududlarda, o‘rtalarda Qarshi qal’asi (mil. XIV asrning oxiri) hududida rivojlanganligi hamda o‘rtalarda shaharlari 5 turda shakllanganligi dalillangan;

Qashqadaryo viloyatida joylashgan tarixiy yodgorliklar (masjidlar, maqbaralar, madrasalar, rabotlar, xonaqohlar, majmualar, sardobalar)ning qurilish davri, joylashgan joyi, me’moriy-rejaviy yechimi, tipologik tuzilishi yuzasidan ma’lumotlar bazasi yaratilib, madrasalar tipologiyasidagi farqli jihatlar ularning qurilish davrlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi, Qarshi shahridagi XIX asrda bunyod etilgan Qilichboy, Abdulaziz, Bekmir madrasalari tipologik jihatdan bir-biriga o‘xshashligi, ularning hovlilari o‘rtalarda madrasalari tipologiyasidan farqli ravishda sakkiz burchakli tarzda shakllantirilganligi aniqlangan;

Qashqadaryo hududida joylashgan Xitoy va Langar ota masjidlari tipologiyasi o‘ziga xos bo‘lib, ularning qishgi zal (honaqoh)lari boshqa masjidlardan farqli ravishda besh ustunli tarzda rejashtirilganligi aniqlangan;

Shahrисabz va Qarshi shaharlari tarixiy markazlarida va ularga yaqin hududlarda joylashgan arxitektura ob’ektlari va ular haqidagi ma’lumotlar (arxiv ma’lumotlari, fotosur’atlar, ob’ektlar haqida yozma ma’lumotlar, chizmalar)ni, shuningdek sayyohlik yo‘nalishi uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani o‘zida qamrab olgan samarador turistik marshrutlar taklif loyihalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyatida joylashgan arxitektura yodgorliklarining tipologiyasi shakllantirilib, ular haqida to‘liq ma’lumotlarni o‘zida jamlagan ma’lumotlar bazasi yaratilgan;

o‘rganilayotgan hududda joylashgan 236 ta ob’ektlarni o‘zida jamlagan, qurilish davri va tumanlarda joylashuvi bo‘yicha ajratib chiqilgan yaxlit jadval yaratilgan; (2-ilova)

Qashqadaryo viloyatining turistik salohiyatini oshirish maqsadida Quyi Orol, Langar ota, Xitoy, Uychilik, Tezguzar, Kunchiqar masjidlari, Oq rabot yodgorliklarini ta’mirlash loyihalari va hozirgi kunda butunlay buzilib ketgan Said Murod Amin rabotining dastlabki ko‘rinishi yuzasidan grafik taklif loyihalari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchiligi** arxitektura fanida birlamchi moddiy madaniyat manbalariga bag‘ishlangan adabiyotlar, arxeologik va arxiv materiallariga murojaat qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning tegishli tashkilotlar tomonidan amaliyatga joriy etilganligi, xalqaro va respublika konferensiylarida, ilmiy seminarlarda aprobasiyadan o‘tkazilganligi hamda olingan natijalarining ilmiy ahamiyatga egaligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qashqadaryo viloyati shaharsozligi va me’morchiligi sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish, shuningdek tarixiy shaharlardagi me’moriy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash loyihalarini bajarishda xalq me’morchiligining o‘ziga xos an’analaridan samarali foydalanish imkoniyatini oshirishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxitektura va qurilish tashkilotlari faoliyatida, qadimiy shaharlarni rekonstruksiya qilish bosh rejalarini ishlab chiqishda, me’moriy obidalarni ta’mirlash va ularning muhofaza zonalarini aniqlashda hamda oliy ta’lim muassasalarida arxitektura va shaharsozlik sohasidagi fanlar mazmunini to‘ldirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tarixiy yodgorliklar asosida hududlarning turizm imkoniyatlarini oshirish yo‘llari (Qashqadaryo viloyati misolida) mavzusi yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

Qashqadaryo vohasida joylashgan tarixiy manzilgoh-shaharlarning vujudga kelish va shakllanish bosqichlari aniqlanib, zamonaviy Qarshi shahrining qadimgi va antik davrlarda Yerqo‘rg‘on (mil.avv. V-IV aa.), Qal’ai Zahoki Moron (mil.avv. II a.), Shulluktepa (mil. III-IV aa.) kabi hududlarda, o‘rta asrlarda Qarshi qal’asi (mil. XIV asrning oxiri) hududida rivojlanganligi hamda o‘rta asr shaharlari 5 ta turda shakllanganligiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi 2023 yil 1 iyundagi 02-05/1781-son ma’lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo vohasidagi tarixiy shahrlar haqidagi ilmiy ma’lumotlarning boyishiga, ularning shakllanish bosqichlari yuzasidan aniq qarashlarning yuzaga kelishiga imkoniyat yaratilgan;

Qashqadaryo viloyatida joylashgan tarixiy yodgorliklar (masjidlar, maqbaralar, madrasalar, rabotlar, xonaqohlar, majmular, sardobalar)ning qurilish davri, joylashgan joyi, me’moriy-rejaviy yechimi, tipologik tuzilishi yuzasidan ma’lumotlar bazasi yaratilib, madrasalar tipologiyasidagi farqli jihatlar ularning qurilish davrlari bilan bevosita bog‘liq ekanligi, Qarshi shahridagi XIX asrda bunyod etilgan Qilichboy, Abdulaziz, Bekmir madrasalari tipologik jihatdan bir-

biriga o‘xshashligi, uarning hovlilari o‘rta asr madrasalari tipologiyasidan farqli ravishda sakkiz burchakli tarzda shakllantirilganligiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi 2023 yil 1 iyundagi 02-05/1781-son ma’lumotnomasi). Natijada Qashqadaryo viloyatida qurilgan me’moriy yodgorliklarning tipologiyasi haqidagi ma’lumotlarni olish imkoniyati oshgan;

Qashqadaryo hududida joylashgan Xitoy va Langar ota masjidlari tipologiyasi o‘ziga xos bo‘lib, ularning qishgi zal (honaqoh)lari boshqa masjidlardan farqli ravishda besh ustunli tarzda rejalashtirilganligiga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi 2023 yil 1 iyundagi 02-05/1781-son ma’lumotnomasi). Natijada tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan yodgorliklarni ta’mirlash va qayta tiklash imkoniyati yaratilgan;

Shahrisabz va Qarshi shaharlari tarixiy markazlarida va ularga yaqin hududlarda joylashgan arxitektura ob’ektlari va ular haqidagi ma’lumotlar (arxiv ma’lumotlari, fotosur’atlar, ob’ektlar haqida yozma ma’lumotlar, chizmalar)ni, shuningdek sayyohlik yo‘nalishi uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani o‘zida qamrab olgan samarador turistik marshrutlar taklif loyihibalariga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi faoliyatida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi 2023 yil 1 iyundagi 02-05/1781-son ma’lumotnomasi). Natijada tarixiy shaharlari hududlarida qulay imkoniyatlarga ega turistik marshrutlarni tuzish va hududda turizm infrastrukturasing boyishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumladan, respublika va xalqaro konferensiyalarda 5 ta, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 3 ta va xorijiy jurnalda 1 ta maqola nashr etilgan.

**Dissertasiya tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, 3 ta bob, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 132 betni tashkil etadi.

## **DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertasiyaning Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan hamda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertasiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertasiyaning birinchi bobi “**Qashqadaryo viloyati shaharsozligi**” deb nomlanib, uch bo‘limdan iborat. Ushbu bobda O‘zbekiston va Qashqadaryo

viloyati hududida qadimgi va antik davrga oid bo‘lgan shaharlarning vujudga kelish bosqichlari tahlil qilingan.

Bobning “Qadimgi va antik davr shaharsozligi” deb nomlangan birinchi bo‘limida Qashqadaryo viloyati hududida shaharlarning paydo bo‘lishi hamda rivojlanish jarayoni haqida so‘z boradi. Qadimiy shaharlar ko‘rinishi va tipologik tuzilishi jihatdan bir-biridan farqli tarzda dual (darvozadan keladigan asosiy yo‘l shaharni ikkiga ajratib turgan), erkin (ma’lum bir shaklga ega bo‘lmagan), to‘g‘ri to‘rtburchak va kvadrat shakllarda shakllangan.

Qashqadaryo hududida ham qadimiy manzilgohlar mavjud bo‘lib, Sang‘ir tepe (mil. av. IX-VIII a.a.) Uzunqir (mil. av. VII-VI a.a.), Nautaka (mil. av. VII a.a.),<sup>27</sup> Sho‘rtepa (I-II a.a.), Xo‘jalitepa (II-V a.a.), Poshtantepa (III a.), Obrontepa, Chavqaytepa (V-VI a.a.) shaharlari shular jumlasidandir.<sup>28</sup> Qashqadaryo vohasidagi eng qadimiy shahar bu Erqo‘rg‘on shahri hisoblanadi. Shaharning vujudga kelishi mil. avv. V-IV asrlarga borib taqaladi. Ushbu shahar ichki va tashqi qismlardan iborat bo‘lgan va umumiy maydoni 150 ga ni tashkil etgan.<sup>29</sup> Erqo‘rg‘on tuzilishiga ko‘ra, shahar arki, hokimlar saroyi, ibodatxona, mudofaa devorlari, dahma hududi, kulollar mahallasi, temirchilar mahallasi va boshqa qismlardan iborat bo‘lgan.

Hozirgi Qarshi shahri atrofida yana bir nechta shaharlar mavjud bo‘lib, Qalandartepa (mil. av. III a.),<sup>30</sup> Shulluktepa (mil. III-IV aa.), Qal’ai Zahoki moron (mil. av. II a.), Navro‘ztepa, Karoxovaltepa, Xontepa va boshqalar shular jumlasidandir.<sup>31</sup> (1-ilova)

Bobning “O‘rta asrlar davri shaharsozligi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida shaharlarning ushbu davrdagi strukturaviy tuzilishi haqida so‘z boradi. Qashqadaryo vohasi shaharlarining o‘rta asrlardagi strukturasi O‘rta Osiyodagi boshqa shaharlar strukturasiga o‘xshash tarzda shakllangan.

O‘rta asrlarda o‘rganilayotgan hududda bir qancha, jumladan, Kasbi (mil. V-VI aa.), Kultepa (mil. VI-VII aa.), Dag‘aytepa (mil. VI-VIII aa.), Sariqtepa (mil. V-VIII aa.) va boshqa shu kabi shaharlar mavjud bo‘lgan. Sariqtepada hayot VII-VIII asrlargacha davom etgan. Uning strukturaviy tuzilishini ko‘radigan bo‘lsak, uch - ark, shahriston va rabod qismlaridan tashkil topgan. Sariqtepadagi hayotning to‘xtash sabablari arablar istilosi bilan bog‘liq. Bu kabi holat Panjikentda ham kuzatilgan. VIII asrning 20-30 yillarida arablar bosqini tufayli shaharda hayot so‘ngan.<sup>32</sup>

VII-VIII asrlarga kelib Quyi Qashqadaryoda Naxshab, Kojartepa, Dag‘aytepa, Obrontepa, Yoztepa kabi shahar va qishloqlarda faol hayot davom etadi. Janubiy So‘g‘dda ilk o‘rta asrlarda nechta shahar faoliyat ko‘rsatganligi

<sup>27</sup> Султанов Х.Т. Гильманова Н.В. Историко-архитектурное и художественное наследие Кашкадарья. Монография. Т.: 2022 г. 73-75 с.

<sup>28</sup> Равшанов П. Қарши тарихи. 2006 й. 182-б.

<sup>29</sup> Ҳасанов А. Жанубий Ўзбекистонда шаҳарлар шаклланиши ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (V-XIV асрлар биринчи ярми мисолида). 2021 й., 68-б.

<sup>30</sup> Кабанов С.К. В оазисах и степях Кеша и Нахшаба. -Ташкент.: Узбекистан. 1988., С. 80.

<sup>31</sup> Равшанов П. Қарши тарихи. 2006 й.

<sup>32</sup> Лунина С.Б. Монументальное здание у ворот Сариктепе. См. кн. «Древняя и средневековая археология Средней Азии», 115-б.; Равшанов П. Қарши тарихи. 2006 й. 198-б.

ma'lum emas. Negaki, 565 yilda Turk hoqonligi va Sosoniylar davlati ittifoqining Eftalitlar bilan bo'lgan jangi oqibatida Janubiy So'g'dning Erqo'rg'on, Kosontepa, Kofirtepa, Shulluktepa, Tallisortepa, G'uzor vohasidagi Yalpoqtepa singari shaharlar vayron etilgan.<sup>33</sup>

O'rta asrlarda Qashqadaryo vohasi hududidagi shaharlarning shakli va hajmida o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, shaharlar oldingi davrga o'xshab tepaliklarda emas, tekis hududlarda, qo'rg'ondevorlar bilan o'ralgan tarzda, ma'lum bir aniq ko'rinishda (to'g'ri to'rtburchak – Shahrisabz shahri va kvadrat – Qarshi shahri) shakllangan. Hududda aholi sonining ortib borishi natijasida shaharlar hajm jihatidan kengayib borgan.

Ushbu davrga mansub Qarshi qal'a-qo'rg'oni Amir Temurning bu erga kelishidan ancha oldin vujudga kelgan. Qarshi qo'rg'oni XIV asrdan ancha ilgari qad rostlagan bo'lib, uning mudofaa devori, handag'i mavjud bo'lgan. Qal'aning aylana istehkom devori Amir Temur bu erga kelgan vaqtida qarovsiz va ta'mir talab bo'lgan. M.E.Massonning fikriga ko'ra, Qarshi qal'asi XIV asrning birinchi yarmida har tomoni 630 metrga yaqin to'g'ri to'rtburchakli reja asosida barpo etilgan. Qal'a shaharning markaziy qismini tashkil etib, aslida bu Kepakxonning qasri bo'lgan bo'lishi ham mumkin. Qal'a o'sha davr mezoniga ko'ra katta joyni (40 ga) egallagan bo'lib, ochiq erda qad rostlagan.<sup>34</sup>

Yana bir o'rta asrlarga oid o'ziga xos shahar Shahrisabz shahri bo'lib, Amir Temur 1378-1379 yillarda Shahrisabzda katta obodonchilik ishlarini amalga oshirgan. O'rta asrlarda shahar qaytadan to'rt darvozali paxsadevori bilan o'ralib, tashqi tomonidan handaq qilingan va shaharga osma ko'priklar orqali kirilgan. Simmetrik shaklda ikki asosiy yo'l bir-biri bilan kesishib o'tgan to'g'ri burchakli shaharlar sharqda, jumladan, O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan. Hozirgi kungacha etib kelgan Shahrisabz shahri maydonidagi Oq saroy (1380 y.), Jahongir Mirzo maqbarasi (XIV a.), Amir Temur sag'anasi (XIV-XV aa.), Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi (1437-1438 yy.), Gumbazi Sayidon maqbarasi (1437 y.), Koba karvonsaroyi (madrasasi) (XVI a.)<sup>35</sup> va XVI asrda barpo etilgan Chubin madrasasi temuriylar davri me'morchiligiga xosdir.

Bobning uchinchi bo'limi "Qashqadaryo (Janubiy So'g'd)ning o'rta asrlar davri shaharlarining o'ziga xos xususiyatlari" deb nomlanib, asosan shaharlaning shakllanish turlari haqida so'z boradi. Janubiy So'g'd hududidagi o'rta asrlarda vujudga kelgan shaharlarni asosan besh turga bo'lib, o'rganish mumkin: 1 - ark, shahriston hamda raboddan iborat bo'lgan, arki va shahristoni yaxlit bir tepalikni tashkil etgan (Chandaroqtepa, Qamaytepa, Parchaql'a, Qoratepa, Nasaf) shaharlari. Bu turdag'i shaharlarda ark va shahriston ikki pog'onali yodgorlik ko'rinishida etib kelgan. Bunday shaharlar ilk o'rta asrlarda paydo bo'lgan shaharlar bo'lib, ularning topografik ko'rinishi va maydoni o'rta asrlarda ham

<sup>33</sup> Ҳасанов А. Жанубий ўзбекистонда шаҳарлар шаклланиши ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (V-XIV асрлар биринчи ярми мисолида). 2021 й. 68-б.

<sup>34</sup> Равшанов П. Карши тарихи. 2006 й. 576-б.

<sup>35</sup> Султанов Х.Т. Гильманова Н.В. Историко-архитектурное и художественное наследие Кашкадаръи. Монография. Т.: 2022 г. 51 с.

deyarli o‘zgarmagan. Ular atrofida shakllangan rabodlar esa bundan mustasno. 2 - ark, shahriston va raboddan iborat bo‘lgan, shahar markazidagi ark shahristondan mudofaa handaqlari bilan ajratilgan (Shulluktepa, Kasbitepa, Poshtontepa, Tallisortepa, Obrontepa, Oltinboshtepa, Bobojontepa), shaharlari. Qashqadaryo vohasining asosiy yirik shaharlari mana shu turga mansub bo‘lgan. 3 - arki shahriston hududida ko‘zga tashlanmaydigan (Saubaxtepa, Xo‘ja Buzurgtepa, Kesh-Shahrisabz qal’asi) shaharlari. Bu shaharlar ichida Kesh-Shahrisabzni arksiz va rabodsiz shahar sifatida ajratish mumkin. 4 - arki, shahristoni va rabodi alohida turgan tepaliklar ko‘rinishidagi (Lihlitepa, Sariqtepa, G‘ishatepa) shaharlari. 5 - kvadrat shaklga ega bo‘lib, atrofi mudofaa devorlari bilan o‘rab olingan va markazida saroy bo‘lgan (Qarshi qal’asi, Zanjir Saroy) qal’a-shaharlari.<sup>36</sup>

Umuman olganda, qadimgi va antik davrlarda Qashqadaryo vohasida ham respublikamizning boshqa tarixiy hududlarida bo‘lgani kabi shaharsozlik va arxitekturaning yuksak darajada ravnaq topganligini ko‘rish mumkin.

Dissertasiyaning **“Qashqadaryo viloyati me’moriy yodgorliklari arxitekturasi va ularning tipologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi beshta bo‘limdan iborat bo‘lib, “Masjidlar tipologiyasi” deb nomlangan birinchi bo‘limida Qashqadaryo viloyatida joylashgan masjidlar tipologiyasi tahlili, ularning arxitekturaviy echimlari haqida so‘z boradi.

Qashqadaryo viloyatida turli davrlarga oid masjidlar mavjud bo‘lib, ushbu yodgorliklar hududning tarixiy nufuzida muhim ahamiyat kasb etadi. Masjidlar qurilishi asosan o‘rta asrlarda keng ko‘lamda rivojlanib, o‘sha davrda bunyod etilgan masjidlar qalin devorli hamda gumbaz tomli va old qismi ayvonli (Hazrati Imom, Quyi Orol, Molik Ajdar masjidlari) yoki ayvonsiz (Zul-kifl, To‘ra masjidlari) uslubda bunyod etilgan. XV-XVI arlarga kelib esa hajmi jihatdan katta va ulkan gumbazli masjidlar barpo etila boshlagan. Bunga misol qilib, Qarshi va Shahrisabz shahridagi Ko‘k Gumbaz<sup>37</sup> masjidlarini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu masjidlarning tarhi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklga ega bo‘lib, kirish qismi baland peshtoqli xonaqoh va ikki yon tomonlarida ayvonlari bo‘lgan tipologiyada shakllangan. Xonaqohlar qo‘sh gumbaz usulida yopilgan bo‘lib, gumbazlarining rangi va tuzilishi juda o‘xshash. (3-ilova)

Chor Rossiya istilosini davri boshlaridan vohadagi masjidlarning me’moriy uslublarida o‘zgarish bo‘lib, masjidlarning tom qismi ko‘proq gumbazdan tekis tom uslubida, ustun to‘sini qilib yopilgan. Bunga misol qilib, 1900-1920 yillar oralig‘ida bunyod etilgan, Kunchiqar, Tezguzar, Xitoy, Uychilik, Eshon Pir masjidlarini misol qilib keltirish mumkin.

Ikkinchi bobning “Madrasalar tipologiyasi” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida Qarshi hamda Shahrisabz shaharlari joylashgan madrasalar haqida so‘z boradi.

---

<sup>36</sup> Xasanov A. Жанубий Ўзбекистонда шаҳарлар шаклланиши ва ривожланишининг ўзига хос хусусиятлари (V-XIV асрлар биринчи ярми мисолида). 2021 й.

<sup>37</sup> Пугаченкова Г.А., Массон М.Е. Шахрисябз при Тимуре и Улугбеке // Труды САГУ. Новая серия, вып. 49. Гуманитарные науки, книга 6. 1951 г.; Пугаченкова. Г. Термез, Шахрисябз, Хива. Москва 1976 г.; Архив манба: Маньковская Л.Ю. Мечеть Кўк Гумбаз. 1971 г.

Shahrisabz shahri maydonida joylashgan Koba karvonsaroyi (madrasasi) XVI asrning ikkinchi yarmida bunyod etilgan. Karvon-saroy bir qavatli bo‘lib, hovlisi bilan qo‘shib hisoblaganda, o‘lchamlari 37,3x37,8 m ni tashkil etadi. Karvonsaroy hovlisi bo‘ylab hujralar joylashgan. Karvonsaroy tarhiga ko‘ra simmetrik shaklda bo‘lgan. Karvonsaroy hovlisi burchagidagi xonalar tarhi kvadrat shaklda bo‘lib, ular gumbazlar bilan yopilgan.<sup>38</sup>

Qarshi shahridagi mavjud madrasalar esa asosan XIX asrda bunyod etilgan bo‘lib, Qilichboy, Abdulaziz, Bekmir madrasalari ikki qavatli qilib qurilgan hamda ular tipologik jihatdan bir-biriga juda o‘xhash. Bunga misol qilib, ushbu madrasalarning hovlilari deyarli bir xil ko‘rinishda, sakkiz burchakli tarzda shakllantirilganligi, kirish qismlari peshtoq bilan ajratilganligi, barcha binolarning ikkinchi qavatiga chiqish zinalari bir xil tarzda joylashganligi, ikkinchi qavatida ham hujralar mavjudligi, binoga kirish joyining ikki tomonidagi xonalar bir xil tarzda joylashganligini ko‘rish mumkin. (3-ilova)

“Maqbaralar va honaqohlar tipologiyasi” deb nomlangan uchinchi bo‘limda Qashqadaryo viloyatida joylashgan maqbaralar hamda xonaqohlar tipologiyasiga to‘xtalib o‘tilgan.

Qashqadaryo viloyatida din va ilm peshvolariga alohida ehtirom ko‘rsatilib, jumladan, Hazrati Xusam ota majmuasida birqancha alomalar maqbaralari joylashgan. Ushbu majmuada Isoq ota maqbarasi (X-XI aa.), Sevinch ota maqbarasi va XVI asrga oid Mansur Muhammad kabi maqbaralar shakllangan. Qashqadaryo viloyatida joylashgan maqbaralar asosan gumbaz toqli, tarhi to‘g‘ri to‘rburchak shaklga ega bo‘lgan. Shamsiddin Kulol, Gumbazi Sayidon, Hazrat Husan Ota, Xoja Iso, Oq Ostona bobo maqbaralarining tipologik echimiga ko‘ra rejaviy o‘xhashligini va asosan bir kamerali qilib qurilganligini ko‘rish mumkin. X-XI aslarda bunyod etilgan maqbaralardan Qashqadaryo viloyatida joylashgan Hazrati Xusam ota va Surxondaryoda joylashgan Oq Ostona bobo maqbaralarining tom qismidagi gumbazlari tuzilish jihatdan o‘xhashligini ko‘rish mumkin.<sup>39</sup>

Xonaqohlar O‘rta Osiyoda islomdagi tasavvuf maskanlari, ya’ni sufiylar yashaychi istehkom sifatida shakllangan bo‘lsa-da, dastavval sufiylar alohida qurilgan o‘z boshpanalariga ega bo‘limgan. Ular dastlabki davrda aniq me’moriy tuzilishga ega bo‘limgan turlicha pastqam uylar, hujralar, boshpanalarda istiqomat qilishib, ularni “xonaqoh” deb nomlashgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak sufiylar dastlabki davrlar (IX-X asrlar)da boshpana sifatida O‘rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida qurilgan va keyinchalik o‘z mavqeini yo‘qotib tashlandiq harbiy istehkomlar va rabotlardan keng foydalanganlar.<sup>40</sup> Temuriylar davriga kelib esa ziyo tarqatuvchi sufiylar uchun keng sharoit yaratilgan. Bunga misol qilib, Buxoro viloyatidagi Chor Bakr majmuasi (XVI a.), Muhammad yor-otaliq xonaqosi (XVII a.), Navoiy viloyatidagi Qosim Shayx xonaqohi (XVI a.),

<sup>38</sup> Тошкент шаҳрида жойлашган маданий мерос агентлиги хузуридаги архив маълумоти. Манъковская Л.Ю. Карван-Сарай (медресе) Коба. 1980 г.

<sup>39</sup> Архив манба: № 961/6.

<sup>40</sup> Уралов А.С., Махматкулов И.Т. Ўзбекистоннинг ўтмишдаги тасаввуф масканлари – хонақоҳлар архитектураси. 2021 й. 31-б.

Surxondaryo viloyatidagi Kokildora xonaqosi (XVI a.) va XVI asrda Qashqadaryo viloyatida bonyod etilgan Xo‘ja Imkonagiy xonaqohlarini ko‘rish mumkin.<sup>41</sup> Yuqoridagi honaqohlarining tipologiyasi solishtirilganda, Qashqadaryoning Kitob tumanida joylashgan Xoja Ilim xon honaqohining boshqa honaqohlarga nisbatan, asosiy xonasining kattaroqligi, ma’lum bir kompleks tarkibida qurilmaganligi va to‘rt tomonida kichik guldastalari mavjudligi bilan boshqa xonaqohlardan farqlanishini ko‘rish mumkin.

“Majmuaviy binolar, sardobalar va rabotlar tipologiyasi” deb nomlangan to‘rtinch bo‘limda, majmular, sardobalar, rabotlar tipologiyasi haqida so‘z boradi. Qashqadaryo viloyatida birqancha tarixiy binolar, maqbaralar, masjidlar hamda honaqohlarni o‘zida jamlagan majmular mavjud bo‘lib, Hazrati Husam ota majmuasi, Langar ota majmuasi, Xo‘ja Ilim Kon majmulari shular jumlasidandir. Surxondaryo viloyatida joylashgan Hakim at-Termiziy, Sulton Saodat majmularini va Qashqadaryo viloyatida joylashgan Hazrati Xusam Ota majmularining me’moriy tipologiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, Hakim at-Termiziy va Hazrati Xusam Ota majmularining asosiy maqbara atrofidagi kichik xonalarning kompozision joylashuvi, rejaviy tuzilishi va tom qismidagi gumbazlari o‘xshashligini ko‘rish mumkin. Shuningdek Shahrисabz shahrida joylashgan Oqsaroy binosi ham bir necha funksiyadagi qismlarni o‘zida mujassamlashtirgan majmua sifatida shakllangan.

Ushbu saroy Qashqadaryo viloyatining dominant inshootlaridan biri bu Amir Temur saroyidir. Ushbu saroy Amir Temur tomonidan 1380 yilda qurdirilgan va Oq saroy deb nomlangan.<sup>42</sup> Saroy to‘g‘risida Amir Temurning saroy tarixchilari shunday yozgan: «Kungurasining balandligi cheksizdir. U samo yulduzlarining ko‘zları bilan bahslasha oladi».<sup>43</sup> Saroyning hozirda faqat kiraverishdagi peshtoqning bir-biridan ajralgan ikki piloni (gulustuni) saqlanib qolgan, xolos. 200 yil oldin qulab tushgan Oq saroyga kirish peshtoqi haqiqatdan ham O‘rta Osiyoda eng yirik peshtoq bo‘lib, uning ravoqlar oralig‘i 22,5 m ga teng.<sup>44</sup>

Qashqadaryo vohasida bir nechta sardobalar ham bonyod etilgan bo‘lib, Qamashi sardobasi (XIVa.), Qarshi sardobasi (XVI a.), Yakka (Maymanak) sardoba (XVI a.), Toshkent viloyatida joylashgan Qaynargumbaz sardobasi (XI-XII a.), Buxoro viloyatidagi Buzachi sardobasi (XVI a.), Qorovulbozor sardobasi (XIX a.) shular jumlasidandir.<sup>45</sup> Ushbu sardobalarining tipologik tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, Bekcha, Buzachi va Qarshi sadobalarining hajmi, rejaviy tuzilishi bir-biriga o‘xshashligini, Qamashi sardobasi esa hajmi jihatdan va devorining qalinligi bilan boshqa sardobalardan butunlay farq qilishini ko‘rish mumkin.

<sup>41</sup> Архив манба: Ткаченко А.А., Кузьмина Н.Н. № 1, 1966 г.

<sup>42</sup> Султанов Х.Т. Гильманова Н.В. Историко-архитектурное и художественное наследие Кашкадарья. Монография. Т.: 2022 г.

<sup>43</sup> Шарафуддин Али Яздий. Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. «Шарқ» нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти Тошкен-1997 й.

<sup>44</sup> Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари. 1979 й. 16-б., Х.Т.

<sup>45</sup> Новик П.О. Сардоба Мавераннаҳра. Тошкент 2017 й.

Qadimgi davrda Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishi bo‘ylab xizmat ko‘rsatuvchi maskanlar mavjud bo‘lgan. Bunga misol qilib, Qashqadaryo viloyatida joylashgan Oq rabot (1901 y.) va Said Murod amin rabot (1907-1910 yy.)larini ko‘rish mumkin.<sup>46</sup> Oq rabot va Saidmurod Amin rabotlarining tipologiyasini tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning dastlabki qurilish vaqtiga oralig‘ida katta farq bo‘lmasada, tarhiy tuzilishi, xonalarning kompozision joylashuvi va umumiy ko‘rinishi tubdan farq qilishini ko‘rish mumkin. Saidmurod Amin raboti milliy me’morlik uslubida barpo etilgan bo‘lsa, Oq rabot evropa arxitekturasi uslubida qurilgan.

“Savdo inshootlari, hammomlar va ko‘priklar arxitekturasi” deb nomlangan beshinchi bo‘limda, Qashqadaryo viloyatida joylashgan tarixiy ahamiyatga ega inshootlar, hammomlar, ko‘priklar va Shahrисabz maydonida buniyod etilgan Chorsu timi (XV-XVIII aa.)<sup>47</sup> haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Tarixiy shaharlarda savdo inshootlari muhim ahamiyat kasb etib, ular ayniqsa Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab shakllangan shaharlarda yanada rivoj topgan. O‘rta asr shaharlarida markaziy savdo inshootlari Chorsu binosi bo‘lib, ular shahar darvozalaridan keladigan asosiy ko‘chalar kesishmasida joylashgan. Shahar maydonlarida va asosiy ko‘chalar bo‘ylab ham engil tipdagi savdo rastalari shakllangan. Shaharga kirish darvozalari oldida ham mavsumiy bozorlar shakllanganligini ko‘rish mumkin.

O‘rta asrlarda Qashqadaryo vohasida sog‘lomlashtirish maskanlari, ya’ni hamomlar qurish keng an’anaga aylangan. Buning dalili sifatida Shahrисabz maydonida buniyod etilgan o‘rta asr hammomi (XV a.), arxeologik hammom (XIV a.) va Qarshi shahridagi XIV asrga oid hammomlarni misol qilib keltirish mumkin.

O‘rta asrlarda hammomlarning qurilishi an‘anaviy uslubda bo‘lib, yuvinish zallarining poli marmar toshlardan, izorasi esa odam bo‘yi barobar hoshiyali naqshlar bilan bezatilgan. Undagi issiqxonalar badanni qizdirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 38-39 darajagacha ko‘tarilgan. Bulardan tashqari har bir hammomda kiyinish, echinish va choy ichib dam oladigan xonalari mavjud bo‘lgan.<sup>48</sup>

O‘rta Osiyodagi bizgacha etib kelgan eng qadimiyo ko‘priklar XVI asrning ikkinchi yarmiga tegishli bo‘lib, ular ichida Qashqadaryo ustiga qurilgan ko‘prik eng kattasidir. Daryo o‘zanini kesib o‘tuvchi g‘isht ko‘prik, o‘n ikkita pishiq pilpoya ustunlarga tayanib, ular o‘n to‘rtta keng va pastak ravoqlar orqali birlashtirilgan. Ko‘prikning uzunligi 122 m,<sup>49</sup> eni 8,2 m, daryo tubidan o‘rtadagi yo‘l qoplamiga qadar balandligi 5,35 m. Ko‘prikning har ikki tarafidagi ravoqlar oralig‘idagi pilpoyalar o‘ta baquvvat silindrik g‘isht tirgovchilar bilan

<sup>46</sup> Тошкент шаҳрида жойлашган маданий мерос агентлиги хузуридаги архив маълумоти. № 157, 1026/7.

<sup>47</sup> Хусанбаев Б.М., Тулаганов Л.А., Разина В.Г. Дорогами великого шелково пути. -Т.: 1996 г. 192-193 с.

<sup>48</sup> Равшанов П., Хушвақтов Н. Қашқадарё тарихига саёҳат. 2020 й.141-142-бет.

<sup>49</sup> Султанов Х.Т. Гильманова Н.В. Историко-архитектурное и художественное наследие Кашкадаръи. Монография. Т.: 2022 г.

mahkamlangan. Uning sokoli pastga tomon kengaytirib borilgan, har birining diametri 4 metrli burjlarga birlashtirilgan.<sup>50</sup>

Xulosa qilib aytganda, Qashqadaryo vohasi arxitektura ob'ektlarining tipologik tahliliga ko'ra, bir xil funksiyani bajaradigan yodgorliklar tipologiyasida o'xshashlikni kuzatish mumkin. Jumladan, XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Qarshi shahrida bunyod etilgan Abdulaziz, Bekmir va Qilichboy madrasalarining tipologik tuzilishi bir-biriga o'xshashligi, madrasalarning sakkizburchakli hovliga egaligi, kirish qismining ikki qavatli ekanligi va boshqalar shular jumlasidandir. 1900-1920 yillar oralig'ida bunyod etilgan Kunchiqar, Tezguzar, Xitoy, Uychilik, Eshon Pir kabi mahalla masjidlari ham tipologik jihatdan o'xshash (xonaqoh va ayvonli) tarzda shakllangan. Bu jihat bir xil davrlarda qurilgan yodgorliklarda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi.

Dissertasiyaning **“Qashqadaryo viloyatining turizm imkoniyatlarini oshirish yuzasidan takliflar”** deb nomlangan uchinchi bobo to'rtta bo'limdan iborat. Ushbu bobda ta'mir talab va hozirgi kunda buzilib ketgan tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash borasida takliflar va turistik marshrutlarni shakllantirish yuzasidan xorij tajribasi, Qashqadaryo viloyatidagi mavjud turistik marshrutlar tahlili hamda yangi turistik marshrutlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar berilgan.

Bobning “Qashqadaryo viloyatida joylashgan ob'ektlarni ta'mirlash yuzasidan takliflar” deb nomlanuvchi qismida Qashqadaryo viloyatidagi tarixiy ahamiyatga ega masjidlar hamda rabotlarni ta'mirlash va qayta tiklash yuzasidan grafik loyiha takliflari ishlab chiqilgan. Ushbu loyihalarga Langar Ota masjidi (XVI a.), Quyi Orol masjidi (XIII-XIX aa.) (4-ilova), Xitoy masjidi (1903 y.), Tezguzar masjidi (1903 y.), Kunchiqar masjidi (XX a.), Uychilik masjidi (1920 y.), Oq rabot (1901 y.) (5-ilova) va hozirgi kunda buzilib ketgan Said Murod Amin raboti (1907 y.) hamda Quyi Orol (XIII-XIX aa.) masjidlari qamrab olingan. Yodgorliklarni grafik tiklash taklif loyihalarini ishlab chiqishda mavjud arxiv ma'lumotlari, yozma manbalar tahlil qilingan va ushbu ob'ektlar naturada o'rganilgan. Ushbu ta'mir loyihalari yodgorliklarni tiklashga va hududning turistik infrastrukturasini boyitishga xizmat qiladi.

Bobning “Mavjud turistik marshrutlar tahlili: yutuq va kamchiliklar” deb nomlangan ikkinchi bo'limida, turistik marshrutlar ishlab chiqishda jahondagi turistik salohiyati yuqori bo'lgan davlatlar tajribasi va hozirgi paytda Qashqadaryo viloyatidagi mavjud turistik marshrutlar tahlili haqida so'z boradi.

Jahonda turistik salohiyati jihatidan etakchi mamlakatlar hisoblangan Germaniya, Turkiya, Fransiya va boshqa davlatlarning tarixiy yodgorliklarini o'zida qamrab olgan mavjud turistik xaritalari o'rganildi. Tadqiqot doirasida Germaniya davlatining Myunxen va Shtutgart shaharlari oralig'ida joylashgan turli davrlarga tegishli me'moriy yodgorliklarni o'zida qamrab olgan 1202 km uzunlikdagi turistik marshrut xaritasi<sup>51</sup> tahlil qilinib, xarita doiraviy usulda loyihalanganligini, avtomobil sayohati uchun mo'ljallanganligini, marshrut sodda

<sup>50</sup> Маньковская Л.Ю. Қашқадарё воҳасининг архитектура ёдгорликлари. 1979 й. 64-6.

<sup>51</sup> file:///C:/Users/User/Desktop/image\_2023-05-27\_15-44-38.png

ko‘rinishda va tushunarli tarzda ishlab chiqilganligini va marshrut qamrovidagi ob’ektlar haqidagi ma’lumotlar ko‘rsatilganligini ko‘rish mumkin.

Turkiya davlatining Nevshexir shahri hududida joylashgan hamda 13 ta tarixiy ob’ektlar asosida tuzilgan 286 km uzunlikga ega turistik marshrut xaritasi<sup>52</sup> radial-yulduzli usulda shakllantirilganligini ko‘rish mumkin.

Fransiya davlatining Parij shahri markazidagi tarixiy inshootlar hamda ko‘ngil ochar joylarni o‘zida qamrab olgan 14 km uzunlikka ega turistik xaritasini<sup>53</sup> tahlil qiladigan bo‘lsak, turistik marshrut chiziqiy-doiraviy usulda loyihalanganligini, ob’ektlar joylashgan hudud alohida ajratilganligini, xaritada barcha yodgorliklar va ko‘ngil ochar joylarning foto suratlari joylashtirilganligini va asosiy harakatlanish yo‘nalishlari ranglar bilan ajratilganligini ko‘rish mumkin.

